MADANIYATSHUNOSLIK YONDASHUVI ASOSIDA O‘SMIRLARNI OILAVIY HAYOTGA TAYYORLASHDA SOTSIOMETRIK MUNOSABATLARNI RIVOJLANTIRISH MEXANIZMLARI

Norqulov Husniddin Do‘sbekovich
Oila va gender ilmiy-tadqiqot instituti pedagogika fanlari nomzodi, dotsent.

Annotatsiya. Mazkur maqolada madaniyatshunoslik yondashuvi asosida o‘smirlarni oilaviy hayotga tayyorlash jarayonida sotsiometrik munosabatlarni rivojlantirish mexanizmlari yoritilgan. Oilaviy qadriyatlar va shaxslararo muloqotni mustahkamlashning pedagogik imkoniyatlari tahlil qilingan.

Kalit so‘zlar: o‘smir, oilaviy hayot, sotsiometriya, madaniyatshunoslik, oilaviy qadriyatlar, tarbiya.

Аннотация. В статье рассматриваются механизмы развития социометрических отношений при подготовке подростков к семейной жизни на основе культурологического подхода. Анализируются педагогические возможности формирования семейных ценностей.

Ключевые слова: подросток, семейная жизнь, социометрия, культурологический подход, семейные ценности, воспитание.

Abstract. The article discusses mechanisms for developing sociometric relations in preparing adolescents for family life based on a culturological approach. It analyzes pedagogical opportunities for strengthening family values and interpersonal communication.

Keywords: adolescent, family life, sociometry, culturological approach, family values, education.

Oila ijtimoiy institut sifatida jamiyat taraqqiyotining eng muhim tayanchlaridan biri hisoblanadi. Uni ilmiy jihatdan o‘rganishda oila a’zolarining yoshi, kasbiy faoliyati, farzandlar soni, nikohga kirish yoshi, er-xotinning milliy mansubligi hamda yashash hududining o‘ziga xos xususiyatlari muhim mezon sifatida e’tiborga olinadi. Oila nafaqat ijtimoiy tuzilmaning asosiy bo‘g‘ini, balki jamiyatning ma’naviy-axloqiy muhitini shakllantiruvchi bosh omil hamdir. Xususan, Abdurauf Fitrat “Oila yoki oila boshqarish tartiblari” 8 - deb nomlangan asarining ikkinchi qismini aynan farzand tarbiyasiga bag‘ishlagan. Unda oiladagi eng og‘ir vazifa farzand tarbiyasi ekani, xalqning harakat qilishi, davlat-

mand bo‘lishi, baxtli bo‘lib izzat-hurmat topishi, jahongir bo‘lishi, zaif bo‘lib xorlikka tushishi, faqirlik jomasini kiyib, baxtsizlik yukini tortib e’tibordan qolishi, o‘zgalarga tobe, qul va asir bo‘lishi bolalikdan o‘z ota- onalaridan olgan tarbiyalariga bog‘liqligi alohida ta’kidlanadi.

8 Оила ёки оила бошқариш тартиблари//Масъул муҳаррир: Д.А.Алимова. Тарж. ва изоҳлар муаллифи Ш. Болидов. - 2 нашр - Т.: “Маънавият”. 2000.

Oiladagi sog‘lom ma’naviy-psixologik muhit, eng avvalo, ayolning, ayniqsa onaning tarbiyaviy salohiyati va ma’naviy yetukligiga bevosita bog‘liq. Chunki jamiyatning ma’naviy sog‘lomligi mustahkam oiladan, mustahkam oila esa ona tarbiyasi va oiladagi sog‘lom muhitdan boshlanadi.

Haqiqatan ham, yoshlar ilmli, odobli, aqlan yetuk va oilaviy hayotga puxta tayyor bo‘lsa, oiladagi muhit sog‘lom, oila esa mustahkam va farovon bo‘ladi. Shu sababli yoshlarning oilaviy hayotga ma’naviy, axloqiy va psixologik tayyorgarligini shakllantirish muhim ilmiy-amaliy masala hisoblanadi. Mazkur yo‘nalishda mamlakatimiz psixolog va pedagog olimlari tomonidan oilaviy munosabatlar, yoshlarni nikoh va oilaviy hayotga tayyorlash bo‘yicha qator ilmiy tadqiqotlar olib borilgan va bu jarayon izchil davom ettirilmoqda.

Globallashuv va raqamlashtirish jarayonlari zamonaviy jamiyat taraqqiyotining ajralmas qismiga aylanib, yosh avlodning dunyoqarashi, qadriyatlar tizimi hamda ijtimoiy munosabatlariga sezilarli ta’sir ko‘rsatmoqda. Ayniqsa, o‘smirlar ongida individualizmning kuchayishi, shaxsiy erkinlik va mustaqil qaror qabul qilishga intilishning ortib borishi oilaviy qadriyatlar hamda ijtimoiy mas’uliyat masalalariga yangicha yondashuvni talab etadi. Raqamli makon, internet va ijtimoiy tarmoqlarning kundalik hayotga chuqur kirib borishi yoshlarning muloqot madaniyati, qarashlari va kelajakdagi oilaviy hayot haqidagi tasavvurlarini shakllantirishda muhim omil sifatida namoyon bo‘lmoqda.

Prezident Shavkat Mirziyoev ta’kidlaganidek, “Bola ota-ona qo‘lida bir omonatdir”, deydi buyuk allomalarimiz. Bolalarimiz, ularning taqdiri, kelajagi haqiqatan ham juda omonat ekanini bugungi hayot har tomonlama isbotlamoqda. Agar farzandimizga to‘g‘ri tarbiya bermasak, har kuni, har daqiqada uning yurish-turishi, kayfiyatidan ogoh bo‘lib turmasak, ularni ilmu hunarga o‘rgatmasak, munosib ish topib bermasak, bu omonatni boy berib qo‘yishimiz hech gap emas”9.

Ushbu fikr bugungi globallashuv va raqamli transformatsiya sharoitida yanada chuqur mazmun kasb etmoqda. Chunki farzand taqdiri, uning ma’naviy kamoloti va kelajakdagi hayotiy yo‘li, avvalo, oilada shakllanadi. Bugungi kunda o‘smirlarni oilaviy hayotga tayyorlash

masalasi nafaqat pedagogika, balki sotsiologiya, psixologiya, madaniyatshunoslik va oilashunoslik fanlari kesishgan nuqtadagi eng dolzarb ilmiy-amaliy muammolardan biriga aylanib bormoqda.

Demak, jamiyatda axborot oqimining keskin ortishi, internet va ijtimoiy tarmoqlarning yoshlar hayotiga chuqur kirib borishi ularning dunyoqarashi, qadriyatlar tizimi hamda ijtimoiy munosabatlariga sezilarli ta'sir ko'rsatmoqda. Ayniqsa, yoshlar ongida individualizm, shaxsiy erkinlik va mustaqil qaror qabul qilish tamoyillarining kuchayishi bir tomondan shaxs kamolotining muhim ko'rsatkichi sifatida namoyon bo'lsa, ikkinchi tomondan oilaviy mas'uliyat, jamoaviylik, o'zaro hurmat va bag'rikenglik kabi qadriyatlar bilan uyg'unlashuv zaruratini yuzaga keltirmoqda.

Shu nuqtai nazardan, madaniyatshunoslik yondashuvi mazkur muammoni hal etishda mustahkam nazariy va metodologik asos bo'lib xizmat qiladi. Ushbu yondashuv orqali o'smir shaxsining oilaviy hayotga tayyorgarligi faqat nazariy bilimlar doirasida emas, balki milliy qadriyatlar, ma'naviy-axloqiy me'yorlar, oilaviy an'analar, o'zaro munosabat madaniyati va sotsiometrik aloqalar tizimi asosida kompleks ravishda shakllantiriladi. Ayniqsa, shaxslararo munosabatlarning to'g'ri shakllanishi kelajakda mustahkam oila va barqaror jamiyat qurishning muhim poydevori hisoblanadi.

Sotsiometriya so'zi, ya'ni "socio" (lotincha socius) - jamiyat, guruh, birga yashovchi odamlar, "metriya" (yunoncha metron) - o'lchash, baholash degan ma'nolarni beradi. Sotsiometrik munosabatlar - bu jamoa ichidagi shaxslar o'rtasidagi o'zaro aloqalar tizimi bo'lib, u tanlov munosabatlari, hissiy yaqinlik, o'zaro ishonch, hamkorlik darajasi hamda ijtimoiy maqom bilan ifodalanadi. Mazkur tushuncha ilk bor ilmiy muomalaga rumin- amerikalik psixiatr, psixolog va sotsiolog olim Jacob Levy Moreno (1889-1974) tomonidan kiritilgan bo'lib, u sotsiometriya nazariyasining asoschisi hisoblanadi. U guruh ichidagi shaxslararo munosabatlar, o'zaro tanlov, hissiy yaqinlik va ijtimoiy maqomni o'rganish uchun maxsus metod ishlab chiqqan. "Sotsiometriya - bu guruhlarning rivojlanishi va tashkil topishini, shuningdek, shaxsning guruh ichidagi o'rnini o'rganuvchi ilmiy tadqiqot usulidir"10. Bugungi kunda ushbu yondashuv ta'lim, tarbiya va ijtimoiy psixologiya sohalarida keng qo'llanilmoqda.

O'smirlik davri shaxsning ijtimoiylashuvi va shaxslararo munosabatlar tizimi shakllanishida eng muhim bosqichlardan biri hisoblanadi. Aynan shu davrda tengdoshlar bilan hamkorlik, kattalar bilan muloqot, ota-ona bilan munosabat va mustaqil qaror qabul qilish ko'nikmalari shakllanadi. Ushbu jarayonlar esa kelajakdagi oilaviy hayot modelining

dastlabki poydevorini yaratadi.

Shu nuqtai nazardan, o‘smirlarning sotsiometrik munosabatlari ularning keyingi nikoh va oilaviy hayotdagi barqarorligi, o‘zaro hurmatga asoslangan munosabatlarni qurish qobiliyati hamda ijtimoiy moslashuv darajasiga bevosita ta’sir ko‘rsatadi.

Madaniyatshunoslik yondashuvi nuqtai nazaridan oilaviy hayotga tayyorgarlik shaxsning kelajakdagi oilaviy barqarorligini ta’minlaydigan bir nechta muhim tarkibiy komponentlarni o‘z ichiga oladi. Ular quyidagilardan iborat:

1. Ma’naviy-axloqiy tayyorgarlik. Bu shaxsning halollik, vijdon, mehr-oqibat, sadoqat va hurmat kabi axloqiy qadriyatlarni o‘zlashtirishi hamda ularni kundalik hayotda qo‘llay olish qobiliyatidir. Oilaviy hayotda bu komponent o‘zaro ishonch va barqaror munosabatlarning asosini yaratadi.

2. Psixologik tayyorgarlik. Bu shaxsning hissiy barqarorligi, stressga chidamliligi, o‘zini boshqarish va boshqalarni tushuna olish (empatiya) ko‘nikmalarini anglatadi. Psixologik tayyorgarlik oilaviy nizolarni to‘g‘ri boshqarish va sog‘lom munosabatlarni saqlashga xizmat qiladi.

3. Kommunikativ tayyorgarlik. Bu muloqot qilish madaniyati, tinglash va fikr bildirish qobiliyati, shuningdek, o‘zaro tushunishga asoslangan samarali aloqa o‘rnatish ko‘nikmalarini o‘z ichiga oladi. Oilada bu komponent muammolarni dialog orqali hal etishga yordam beradi.

4. Ijtimoiy mas’uliyat. Bu shaxsning oila, jamiyat va jamoadagi o‘rnini anglash, o‘z burch va majburiyatlarini bajarish hamda qarorlarining ijtimoiy oqibatlarini tushunish qobiliyatidir. Bu komponent oilaviy barqarorlik va jamiyatga ijobiy integratsiyani ta’minlaydi.

5. Milliy va umuminsoniy qadriyatlar uyg‘unligi. Bu milliy urf-odatlar, an’analar va umuminsoniy insonparvarlik tamoyillarini birgalikda qabul qilish va hayotga tatbiq etishdir. Mazkur uyg‘unlik shaxsning madaniy identifikatsiyasini mustahkamlaydi va global muhitda sog‘lom ijtimoiy moslashuvni ta’minlaydi.

Zardusht deydi: “Ey oila qurayotganlar, ya’ni yigit, qizlar, Sizlarni ogohlantirib shuni aytmoqchimanki, har biringiz pokiza hayot yo‘lida g‘ayrat qilingiz”11. Avestoda oila qurish jufti-halol tanlashda shosh-ma-shosharlikka yo‘l qo‘ymaslik, ota-ona, keksalar maslahatiga quloq tutish xususida ham diqqatga molik mulohazalar mavjud. Yaxshi bilan yomonni fikrlariga diqqat qiling. Shuningdek, yana Avestoda ajdodlarimizning oila va xotin-qizlarni mukarram tutish haqida peshqadam fikrlar o‘z ifodasini topgan.

Xalqaro pedagogik tajribada o‘smirlarni oilaviy hayotga tayyor-

lash masalasi turli konseptual yondashuvlar asosida amalga oshiriladi. Xususan, Yevropa mamlakatlarida “life skills education” (“Hayotiy ko‘nikmalar ta’limi”) modeli keng qo‘llanilib, u yoshlarda hayotiy ko‘nikmalarni rivojlantirishga qaratilgan. Ushbu modelda muloqot madaniyati, mas’uliyat, stressni boshqarish, nizolarni konstruktiv hal qilish hamda empatiya ko‘nikmalarini shakllantirish asosiy o‘rin tutadi. Jahon Sog‘liqni Saqlash Tashkiloti (WHO) ham hayotiy ko‘nikmalarni rivojlantirishni yoshlar salomatligi va ijtimoiy moslashuvining muhim omili sifatida e’tirof etadi12.

Shuningdek, YUNISEF (UNICEF, 2017) tadqiqotlarida qayd etilishicha, “Hayotiy ko‘nikmalarga asoslangan ta’lim o‘spirinlarga ongli qaror qabul qilish, samarali muloqot qilish hamda o‘zini boshqarish va muammolarni hal qilish ko‘nikmalarini rivojlantirishga yordam beradi. Bu esa ularning ijtimoiy xulq-atvori va sog‘lom munosabatlar shakllanishiga xizmat qiladi”13.

Sharq mamlakatlarida esa oilaviy qadriyatlar ko‘proq madaniy-ma’naviy tarbiya bilan uyg‘un holda shakllantiriladi. Bu yondashuvda oilaviy an’analar, hurmat, kattalarga ehtirom va avlodlararo aloqalar markaziy o‘rin egallaydi. Ayniqsa, O‘zbekiston, Yaponiya va Janubiy Koreya tajribasida oila instituti jamiyat barqarorligining asosiy tayanchi sifatida qaraladi.

O‘zbekiston Respublikasida esa oila, mahalla va ta’lim muassasasi hamkorligi “uchlik modeli” sifatida shakllangan bo‘lib, bu tizim yoshlarni ijtimoiy va ma’naviy jihatdan qo‘llab- quvvatlashda muhim ahamiyat kasb etadi. Shu nuqtai nazardan, madaniyatshunoslik yondashuvi milliy ta’lim modeliga uyg‘un kelib, xalqaro tajribalar bilan integratsiyalashuv imkonini beradi.

O‘smirlarni oilaviy hayotga tayyorlashda quyidagi mexanizmlar samarali hisoblanadi:

1. Muloqot kompetensiyasini rivojlantirish. Bu mexanizm o‘smirlarda samarali muloqot qilish ko‘nikmalarini shakllantirishga qaratilgan. U orqali ularda fikrni erkin va to‘g‘ri ifoda etish, boshqalarni tinglash madaniyati, suhbatda hurmat va etika qoidalariga rioya qilish, hamda his-tuyg‘ularni to‘g‘ri boshqarish qobiliyati rivojlanadi. Shuningdek, murakkab vaziyatlarda kelishuvga erishish va ziddiyatlarni tinch yo‘l bilan hal qilish ko‘nikmalari ham shakllanadi. Bu esa kelajakda oilaviy munosabatlarda tushunish va hamkorlik muhitini yaratishga xizmat qiladi.

2. Qadriyatlar integratsiyasi. Ushbu mexanizm milliy qadriyatlar, urf-odatlar va zamonaviy ijtimoiy talablarni uyg‘unlashtirishga asoslanadi. O‘smirlar oilaviy an’analarni saqlagan holda, zamonaviy jamiyat

talablariga mos ijtimoiy ko‘nikmalarni ham o‘zlashtiradilar. Bu jarayon ularda madaniy identichlik, ya’ni o‘z millatining ma’naviy merosiga hurmat hissini kuchaytiradi. Shu bilan birga, globallashuv sharoitida turli madaniyatlarni tushunish va moslashish qobiliyatini ham shakllantiradi.

3. Sotsiometrik monitoring. Bu mexanizm sinf va guruh ichidagi o‘smirlarning o‘zaro munosabatlarini muntazam o‘rganish va tahlil qilishni anglatadi. U orqali kim kim bilan ko‘proq muloqot qilayotgani, guruh ichidagi yetakchilar, ijtimoiy rad etilgan yoki cheklangan o‘quvchilar aniqlanadi. Bu ma’lumotlar asosida pedagoglar o‘quvchilar o‘rtasida sog‘lom munosabat muhitini shakllantirish, konfliktlarni kamaytirish va ijtimoiy integratsiyani kuchaytirish choralarini ko‘radilar. Bu esa kelajakda oilaviy munosabatlarda ham muvozanat va barqarorlikni ta’minlashga xizmat qiladi.

4. Raqamli madaniyatni shakllantirish. Ushbu mexanizm o‘smirlarning internet va ijtimoiy tarmoqlardan ongli, maqsadli va mas’uliyatli foydalanish ko‘nikmalarini rivojlantirishga qaratilgan. Raqamli madaniyatni shakllantirish jarayonida yoshlar axborot oqimini to‘g‘ri tahlil qilish, ishonchli manbalarni ajratish, shaxsiy ma’lumotlarni himoya qilish hamda onlayn muloqot etikasi qoidalariga rioya qilishni o‘rganadilar.

Shu bilan birga, raqamli muhitdagi faoliyat oilaviy qadriyatlar bilan uyg‘unlashtiriladi, ya’ni internetdan foydalanish jarayonida ota-ona va oila a’zolari bilan muloqot, birgalikdagi vaqtni samarali tashkil etish hamda virtual va real hayot o‘rtasidagi muvozanatni saqlashga alohida e’tibor qaratiladi.

Mazkur mexanizm yoshlarni raqamli muhit ta’siridan himoya qilish bilan birga, ularning ijtimoiy mas’uliyatini oshiradi va oilaviy munosabatlarda sog‘lom kommunikatsiya madaniyatini shakllantirishga xizmat qiladi.

Sotsiometrik munosabatlari rivojlangan o‘smirlar jamoada o‘z o‘rnini aniq anglaydigan, ijtimoiy aloqalarni to‘g‘ri quradigan hamda o‘zaro ishonch va hurmatga asoslangan munosabatlarni shakllantira oladigan shaxslar sifatida yetishadi. Bunday o‘smirlar oilaviy hayotga nisbatan yanada mas’uliyatli yondashadi, nizoli vaziyatlarda murosaga moyillik ko‘rsatadi hamda kommunikativ jihatdan yetuk bo‘lishi bilan ajralib turadi.

Shuningdek, sotsiometrik ko‘nikmalarning rivojlanishi yoshlarning emotsional barqarorligini mustahkamlab, ularning stressga chidamliligini oshiradi va ijtimoiy moslashuv jarayonini yengillashtiradi. Bu esa kelajakda oilaviy ajrimlar, ichki nizolar va shaxslararo kelishmovchiliklar kabi salbiy holatlarning oldini olishga xizmat qiladi.

Ilmiy jihatdan mazkur yondashuv o‘smir shaxsining ijtimoiylashuvi, kommunikativ kompetensiyalari va qadriyatlar tizimini kompleks o‘rganish imkonini beradi hamda oilaviy hayotga tayyorlash jarayonini yanada samarali tashkil etish uchun nazariy-metodik asos bo‘lib xizmat qiladi.

Madaniyatshunoslik yondashuvi asosida sotsiometrik munosabatlarni rivojlantirish o‘smirlarni oilaviy hayotga tayyorlash jarayonida eng samarali va zamonaviy innovatsion strategiyalardan biri sifatida namoyon bo‘ladi. Ushbu yondashuv yoshlarning faqat individual rivojlanishini emas, balki ularning ijtimoiy moslashuvi, kommunikativ kompetensiyalari va jamoaviy muhitda sog‘lom munosabatlar o‘rnatish qobiliyatini ham kompleks ravishda shakllantirishga xizmat qiladi.

Mazkur model orqali o‘smirlarda oilaviy qadriyatlarga hurmat, mas’uliyat hissi, o‘zaro tushunish va empatiya kabi muhim sifatlar mustahkamlanadi. Shu bilan birga, u yoshlarni kelajakdagi oilaviy hayotda barqaror munosabatlar qurishga, nizolarni konstruktiv hal qilishga hamda ijtimoiy muhitda faol va mas’uliyatli shaxs sifatida shakllanishiga zamin yaratadi.

Natijada, ushbu yondashuv nafaqat shaxsiy kamolot, balki jamiyat barqarorligi va sog‘lom oilaviy institutni rivojlantirishda ham muhim ilmiy-amaliy ahamiyat kasb etadi.

Yuqoridagi ilmiy tahlil va nazariy-amaliy xulosalardan kelib chiqib, quyidagi takliflar beriladi:

“Nikohga tayyorlovchi hayotiy ko‘nikmalar” majburiy o‘quv modullarini joriy etish. Umumta’lim maktablari va oliy ta’lim muassasalarida oilaviy munosabatlar, muloqot madaniyati va nizolarni hal qilish bo‘yicha amaliy treninglar tizimini kiritish.

Oilaviy tayyorgarlikda sotsiometrik diagnostika tizimini joriy etish. Ta’lim muassasalarida o‘quvchilarning ijtimoiy munosabatlari va guruh ichidagi o‘rnini aniqlash orqali psixologik- pedagogik profilaktika ishlarini kuchaytirish.

Ota-ona, mahalla va ta’lim muassasasi hamkorligini institutsionallashtirish. “Uchlik hamkorlik modeli” asosida yoshlarni oilaviy hayotga tayyorlash bo‘yicha yagona monitoring va amaliy qo‘llab-quvvatlash tizimini yaratish.

Raqamli tarbiya va oilaviy qadriyatlar integratsiyasini kuchaytirish. Yoshlarni internet va ijtimoiy tarmoqlardagi ta’sirlardan himoya qilish hamda raqamli madaniyat orqali oilaviy qadriyatlarni shakllantirish bo‘yicha maxsus dasturlar ishlab chiqish.

Oilalarni mustahkamlash bo‘yicha profilaktik-psixologik xizmatlarni

kengaytirish. Ajrim yoqasidagi oilalar bilan individual maslahat, mediativ xizmatlar va psixo-ijtimoiy qo‘llab-quvvatlash tizimini barcha hududlarda joriy etish.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Oila yoki oila boshqarish tartiblari//Mas’ul muharrir: D.A.Alimova. Tarj. va izohlar muallifi Sh. Bolidov. - 2 nashr - T.: “Ma’naviyat”. 2000.

2. Mirziyoev Sh.M. Vatanimiz taqdiri va kelajagi yo‘lida yanada hamjihat bo‘lib, qat’iyat bilan harakat qilaylik. / O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoevning “Ijtimoiy barqarorlikni ta’minlash, muqaddas dinimizning sofligini asrash - davr talabi” mavzusidagi anjumanda so‘zlagan nutqi. // “Xalq so‘zi” gazetasi, 2017 yil 16 iyun.

3. Moreno (1934), Who Shall Survive? 4. Avesto. Tarixiy-adabiy yodgorlik. Asqar Mahkam tarjimasi. - T.: Sharq, 2001.

5. World Health Organization (WHO). Partners in Life Skills Education: Conclusions from a United Nations Inter-Agency Meeting, 1999.

6. UNICEF, Programme Guidance on Life Skills Education, 2017.